

*Qodirjon Najmuddinov,
Namangan Davlat universiteti tayanch doktoranti,
E-mail: najmuddinovqodirjon13@gmail.com,
Tel: +998 90 796 28 22*

Taqrizchi: Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti t.f.n A.A. Ergo'ziyev

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O'ZBEKISTONDAGI EVAKOGOSPITALAR FAOLIYATI (Farg`ona vodiysi misolida)

Annotatsiya

Maqolada 1941-1945-yillar Ikkinchiji jahon urushi davrida O'zbekiston SSRda tashkil etilgan va ko`chirib keltirilgan evakogospitallar faoliyati, ularning ikkinchiji jahon urushidagi g`alabani qo`lga kiritilishidagi ahamiyati ochib berilgan.

O'zbek xalqi urushning dastlabki kunlaridayoq fashizmga qarshi kurashda bor imkoniyat darajasida o`z hissasini qo`sha boshladı. Ikkinchiji jahon urushi yillarda respublikada 120 dan ortiq gospitallar faoliyat ko`satgan. Farg`ona viloyatida esa 16 ta shunday davolash muassasasi faoliyat olib bordi. Ikkinchiji jahon urushi yillarda O'zbekiston sog`liqni saqlash tizimi organlari zimmasiga yuklangan murakkab vazifalardan biri bu evakuatsiya qilingan gospitallar faoliyatini yo`lga qo`yish va ularning ish jarayonlarini tashkil etib, yarador va bemorlarni davolash ishlarni olib borish edi.

Ushbu maqolada O'zbekiston xalqining evakogospitallar faoliyatidagi ishtiroki, ayniqsa Farg`ona vodiysidagi evakogospitallar va ulardagi shifokorlarning mehnat jarayonlari dalil va hujjatlar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Gospitallar, mobilizatsiya, "sog`lomlashtirish pavilyoni", xalq komissarligi, sanitariya nazorati, Qizil armiya, rentgen, donorlar

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЭВАКОБОЛЬНИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ В ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКАЯ ДОЛИНА)

Аннотация

В статье описана деятельность эвакогоспиталей, созданных и переведенных в Узбекскую ССР в годы Великой Отечественной войны в 1941-1945 годах, и их значение в завоевании победы во Второй мировой войне.

Узбекский народ начал вносить свой вклад в борьбу с фашизмом с первых дней войны. В годы Второй мировой войны в республике действовало более 120 госпиталей. В Ферганской области действовало 16 таких очистных сооружений. В годы Великой Отечественной войны одной из сложных задач, возложенных на систему здравоохранения Узбекистана, было налаживание деятельности эвакуированных госпиталей, организация их работы, лечение раненых и больных.

В данной статье на основе доказательств и документов раскрывается участие народа Узбекистана в деятельности эвакогоспиталей, особенно эвакогоспиталей Ферганской долины и рабочих процессов врачей в них.

Ключевые слова: Hospitals, mobilization, "health care pavilion", people's commissariat, sanitary control, Red army, X-ray, donors

ACTIVITY OF EVACOHOSPITALS IN UZBEKISTAN DURING THE SECOND WORLD WAR (EXAMPLE OF FERGONA VALLEY)

Annotation

The article describes the activities of the evacuation hospitals established and moved to the Uzbekistan SSR during the Second World War in 1941-1945, and their importance in winning the victory in the Second World War.

The Uzbek people began to contribute to the fight against fascism in the first days of the war. During the Second World War, more than 120 hospitals operated in the republic. 16 such treatment facilities operated in Fergana region. In the years of the Second World War, one of the complex tasks assigned to the health care system of Uzbekistan was to establish the activities of the evacuated hospitals, organize their work processes, and treat the wounded and sick.

In this article, the participation of the people of Uzbekistan in the activities of evacuation hospitals, especially evacuation hospitals in the Fergana Valley and the work processes of doctors in them, is revealed on the basis of evidence and documents.

Key words: Больницы, мобилизация, «здравпавильон», наркомат, санитарный контроль, Красная Армия, рентген, доноры

Kirish. Ikkinchiji jahon urushida 1 million 951 mingga yaqin o`zbekistonliklar qatnashdi. Ulardan 538 mingdan ziyodi halok bo`ldi, bundan tashqari yana 158 mingdan ortiq nafari jang maydonlarida bedarak yo`qolgan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yil Xotira va qadrlash kuniga bag`ishlangan tantanali marosimda bu masala alohida qayd etildi: "Bular shunchaki oddiy raqamlar emas. Ularning zamirida mushtipar onalarimiz, momolarimiz, mard va jasur otalarimiz, butun xalqimiz qalbidagi cheksiz qayg`u va hasrat mujassam." Ikkinchiji jahon urushi davrida O'zbekistonga ko`chirib keltirilgan ko`plab tibbiy muassasalar: ko`chirib keltirilgan shifoxonalar (evakogospitallar – ko`chirib keltirilgan, harbiy vaqtida tashkil etilgan shifoxonalar bo`lib, u yerda bemor va jarohatlangan askarlarga tibbiy yordam ko`satilgan).

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Ushbu mavzuni yoritishda 1941-1945-yillarda O'zbekiston, xususan, Farg`ona vodiysida tibbiyot sohasi va sog`liqni saqlash tizimi bo'yicha ilmiy ishlarni olib borgan A. Xodjakov, K.Qodirov, G.Mo'minova, Sh.Abdurahimova kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlardan va O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivida, O'zbekiston ilmiy-teknika va tibbiyot hujjatlari milliy arxiv materiallaridan tahliliy foydalanildi.

Maqolada O'zbekistondagi evakogospitallar, ayniqsa Farg`ona vodiysida tashkil etilganlarini davlat arxivida materillaridan kengroq foydalanilib, ushbu ma`lumotlar ilmiy doiraga kiritildi. Ushbu davrni kompleks va tizimli tarzda o`rganilmaganligi mazkur yo`nalishda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari. 1939-yil 1-sentyabr-Ikkinchiji jahon urushi boshlangan kun SSSRda "Umumiylar harbiy majburiyat to'g'risida" gi qonun qabul qilinadi. Unga ko'ra, Mudofaa va Harbiy dengiz floti xalq komissarliklariga armiya hamda flotda

harbiy xizmat o'tash uchun erkaklar bilan bir qatorda tibbiy, veterinar hamda maxsus texnik tayyorgarlik malakasiga ega ayollarni ro'yxatga olish va xizmatga jalg etish huquqi berilgan edi.

Ayollarning yordamchi va maxsus vazifalarni bajarishga jalg etilishi nazarda tutilib, armiyada xizmat qilish uchun 19 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar ikkinchi darajali zahira erkaklar toifasiga kiritilgan. Shu vaqtidan boshlab, tibbiy mutaxassisligi bo'lgan ayollarga harbiy majburiyat yuklatilib, ular hisobga qo'yilgan. Shuning uchun urush sharoitida mutaxassislarning harbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. 1940-yil iyunda SSSR Sog'lioni saqlash xalq komissariati tomonidan "Evakuatsiya gospitallari, ya'ni harakatdagi tibbiy muassasalarini shakllantirish to'grisida"gi Nizom tasdiqlanadi. Ular boshqaruv va moliyalashtirish jihatidan joylardagi sog'lioni saqlash organlariga bo'ysundirilib, amaliyat jihatidan mudofaa komissarligi tomonidan harbiy xizmat davomida yaralangan va kasallangan bemorlarga xizmat ko'satganlar. Ko'chish rejasiga asosan, ushbu tibbiy muassasalar maktab va boshqa jamoatchilik binolariga joylashtirilishi belgilangan. Har bir gospital jarrohlik, bog'lov, rentgen va tashxis bo'limgani hamda kasallar uchun alohida yotoq joylariga ega bo'lgan. Shu yo'sinda, har bir respublikada harakatdagi tibbiy muassasalar tizimi vujudga keldi. Urushning dastlabki yillarda dushman bosib olgan Ukraina, Belorussiya va Rossiya hududlaridan O'zbekiston SSRga aholini ko'chirish ishlari amalga oshirildi. Butunittifoq kasaba uyushmalari markaziy soveti sekretariatining 1941-yil 28-avgustdag'i qarori bilan O'zbekiston Gospital boshqarmasi tashkil etildi. O'zbekiston SSR Gospital boshqarmasi tomonidan ko'plab amaliy ishlar bajarilgan: tibbiy xizmat ko'rsatish yaxshilangan, tajribali kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan, tashxis tekshiruv-davolash ishlari yo'nga qo'yilgan. Gospitallar ko'proq Samarcand va Toshkent shaharlarida tashkil etilgan. Shuningdek, Farg'ona vodiysi hududiga ham gospitallar faoliyati yo'nga qo'yilgan bo'lib, Ikkinchi jahon urushi yillarda bu evakogospitallar g'abalani qo'lg'a kiritilishida muhim o'rinni egallagan.

Respublikaga janglarda yarador bo'lgan askar va zabitlar ham keltirilar edi. Bu boroda ham o'zbek xalqi o'z mehr-saxovatini ko'rsatdi. O'zbekiston sog'lomlashshtirish markazlaridan biriga aylandi. 1941-yil 1-oktabrgacha O'zbekiston sog'lioni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Ayni paytda Moskvadan, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 15900 o'ringa ega 48 gospital ko'chirib keltirilib, joylashtirildi va ishga tushirildi. Viloyat, tuman, shahar idora organlari gospitallardan xabar olib turdi, gospitallarga xo'jaliklar tashkil etish va ish yuritish uchun yer maydonlari ajratib berildi. Agar 1941-yilda shu maqsadda 385,5 hektar yer ajratilgan bo'lsa, 1943-yilga kelib ajratilgan yer maydonlari esa 656 hektarni tashkil etdi. 1942-yilda 1513 mehnat jamoalari, shu jumladan, 750 korxona, kolxozi va sovxozi gospitallarni otaliqqa olib, ularni yoqilg'i, oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan ta'minlab turdi. O'zbekistonlik 18482 nafar donorlar yaradolarni oyoqqa turg'izish uchun qon berishdi. Urush yillarda O'zbekistonning gospitallarga 164382 yarador va bemorlar joylashtirildi, ularning 87 foizi, 143101 kishi davolanib chiqdi. O'zbekistonliklar davolanib sog'ayganlarga sovg'a-salomlar berish bilan birgalikda doimo ularga chiroyli bir xaltacha tikib berishni ham kanda qilmaganlar.

Andijon viloyatida 1941-yili 5 ta harbiy gospital tashkil etilib, keyingi yillarda ular 10 taga yetdi. Gospitallar uchun maktab va institut, klub va teatr, dam olish uyulari va sanatoriylar bo'shatib berildi. Masalan, Andijon shahrining 24-son maktab binosiga 5161-evakogospitali joylashtirildi.

Qo'qon shahrida esa, 1942-yili 200 o'rinali 4513-sonli evakogospital 53-maktabga, 200 o'rinali 3968-sonli evakogospital 1-maktabga, 100 o'rinali 3969-sonli evakogospital O'qituvchilar institutiga joylashtirishga qaror qilindi. Bundan tashqari, 4104-son Oktabrning 10 yilligi Dam olish uyi bazasiga, 4105-son sil kasalligi gospitali esa (150 o'rinali) Oktabrning 15 yilligi nomli Toshkentning sil kasalligi sanatoriysiga joylashtirilgan. 4107-son umumiy jarrohlik gospitali Farg'onadagi dam olish uyida, 4108-son umumiy jarrohlik gospitali O'shdagi dam olish uyida, 4109-son umumiy jarrohlik gospitali Frunzedagi dam olish uyida joylashtirilgan. Farg'onadagi 4107 evakogospital binosi 1905-yil kvartira sifatida qurilgan. 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyin dehqonlar uyi bo'lgan, keyin choyxonaga aylantirilgan. Keyinchalik bino paxta sanoati xodimlari uchun Dam olish uyiga aylantirilgan va 300 kishilik sig'imga ega edi.

Evakogospitallarga yaradorlar va bemorlar sanitari poyezdlarda va mashinalarda olib kelingan. Jumladan, Farg'onadagi 4107 evakogospital Skobelev bekatidan 4 km. masofada joylashgan bo'lib, u yerda yarador va kasallar sanitari poyezddan qabul qilib olgan. Birinchi bor 120 yaradordan iborat bemorlar 1941-yil 22-oktabrdan qabul qilingan va undan keyin 50-100 atrofida yaradorlar qabul qilingan. Ular gospitalga mashinalarda olib borilgan bo'lib, transport bilan ta'minlash mahalliy organlar zimmasida edi.

Gospitallar joylashtirilgan binolar ko'pincha talabga javob bermagan. Jumladan, ularda suv va kanalizatsiya tizimi o'tkazilmagan. Farg'onadagi 4107 gospitalda ham suv va kanalizatsiya mavjud emasdi. Palatalarning ko'pchiligi yo'laklarda joylashtirilgan. Binoning markazidagi yo'lakda 30 ta koyka joylashtirilgan. Yilning iliq fasllarida u yerga 200-250 kishi qabul qilingan bo'lsa, qishda 11 ta palataga arang 150 koyka sig'dirish mumkin bo'lgan. 1944-yil gospitalda palatalar kasalliklar bo'yicha xonalarga joylashtirilgan. 1944-yil yoz, kuz mavsumlarida parkda "sog'lomlashshtirish pavilyoni" tashkil etilgan. Yuqumli kasallikka chalingan bemorlar izolyatorga joylashtirilgan.

1942-yilda gospitallarda yaradolarni saqlashga 7250, 4 ming rubl va taqsimot qilinmagan evakuatsiya gospitallari uchun 378 ming rubl mablag' sarflangan bo'lib, mazkur masala uchun ajratilgan 8139,5 ming rublning 89 foiz qismi ishlataligan, xolos. Suv muammosi tufayli 2 ta xonaga joylashtirilgan sanitariya nazorati bo'limida atigi bitta vanna va 2 ta yomg'irli dush bo'lgan. Mayjud hammomning ahvoli achinarli bo'lib, ustiga ustak u ham bemorlarga ham, xodimlarga ham xizmat ko'rsatgan.

Andijonda urush yillarda g'arbdan ko'chirib kelingan N.Panishevskaya, A.Aslibekyan, I.Garinina, N.Mixaylova, A.Romanenko kabi tibbiyot xodimlari bor edi. Urush qatnashchilari va yaradorlarga tibbiy amaliy yordam va maslahatlar berishda tibbiyot sohasi olimlaridan V. Pilatov, V.Talalayev, N.Bogoraz, K.Maystrax va boshqalar jonbozlik ko'rsatdi. Harbiy gospitallarda mahalliy shifokorlardan T.Gulbasarov, I.Rasulov, M.Isaxonov, S.Muxammedov, R.Farhodi, A.Umarova, R.Yusupova va boshqalar fidokorona xizmat qildi.

1941-yil 23-sentabrdan 1941-yil dekabrgacha umumiy jarrohlik sohasida tibbiy xizmat ko'rsatish yuqori bo'lib, o'rtacha 300 koykani tashkil etdi. 23-oktabrdan 1-yanvargacha koykalar 15480 ta etib belgilangan, lekin amalda 12466 ta koyka tashkil etilgan, ya'ni qamrov 80,5 foiz bo'lgan. 1942-yilda gospitallarda davolanganlardan 79,1 foizi yaralanganlarni, 6,4 foiz muzlab qolganlarni, 0,6 foiz kuyganlarni, 2,9 foiz kontuziya bo'lganlarni, 11 foiz turli kasalliklarga chalingan bemorlarni tashkil etgan.

Farg'onadagi 4107 evakogospitalda faoliyat yuritgan xodimlarning aksariyati urushda ishtirot etayotgan harbiylarning oila a'zolaridan iborat edi. Gospitalga 1941-yil sentabrdan 1944-yil iyulgacha kapitan Akinshin rahbarlik qilgan, uning o'rnni shifokor mayor B. Krinskiy egallagan. Bu gospitalda 1942-yilda 192 ta, 1943-yilda 380 ta, 1944-yilda 714 ta jarrohlik amaliyoti amalga oshirildi.

O`zbekistondan g`arbga ham Harakatdagi armiya qismlari uchun ham gospitallar tuzilib, frontga jo`natildi. Masalan, Andijon viloyatida shunday davolash muassasalaridan 8 tasi tuzildi va ular eng zarur tibbiy asbob-uskunalar, kadrlar bilan ta`minlanib, frontga yuborildi [10]. Shunday shifokorlardan biri 1939-yilda Toshkent Tibbiyot institutini tamomlagan Husniddin Salohiddinov 1942-yilda urushga jo`natildi. U Shimoliy Kavkaz frontlarida jang qilganidan so`ng Lvovdagi chegara qo`shinlari okrug gospitalining asab kasalliklari bo`limi boshlig`i etib tayinlanadi hamda 1946-yilgacha bu yerda faoliyat yuritadi.

Shunday qilib urush yillarda O`zbekistoniga boshqa muassasalar qatori gospitallar ham ko`chirildi va ular respublikaning turli hududlariga joylashtirildi. Mazkur gospitallar uchun qator muassasalar binolari ajratib berildi hamda ularni moslashtirishga harakat qilindi. Lekin, ularning ko`pchiligidagi kanalizatsiya va suv tizimi o`tkazilmagan edi. Chunki, o`sha vaqtida O`zbekiston shaharlarida kanalizatsiyali va suv quvurlari o`tkazilgan binolar kam edi. Gospitallarda butun faoliyati davrida tibbiy asbob-uskunalar, xodimlar yetishmagan, moliyaviy taqchillik bo`lgan. Gospitallarda SSSR ning markaziy qismlaridan kelgan tibbiyot sohasidagi olimlar, shifokorlar mahalliy shofokorlar bilan birga faoliyat yuritdi. Front oldi hududlaridan ko`chirib keltirilgan gospitallar urush harakatlari to`xtagach, yana ortga qaytarib yuborilgan. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarda o`zbekistonlik tibbiyot xodimlari frontga jo`natilib, janggohlarda yaradorlarga va bemorlarga tibbiy yordam ko`rsatishdi.

O`zbekistondagi ishchilar, dehqonlar va ziyoililar o`z vatanparvarlik burchini his etib, respublika gospitallarida davolanayotgan jangchilarga g`amxo`rlik ko`rsatib, ularning tuzalib yana o`z yaqinlari yoniga qaytishlari, jamiyatga foydali bo`lib yashashlari uchun yordam berib, ulug` insoniylik fazilatlarini namoyon etdilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 1941-1945 yillarda O`zbekiston SSR yarador askarlarga tibbiy yordam beruvchi yirik shifoxonalardan biriga aylantirildi. Jang ichida qolgan hududlardan O`zbekiston SSR ga harbiy tibbiyot muassasalarini ko`chirib keltirish, ularning faoliyatini tez fursatda yo`lga qo'yish, yarador va bemor jangchilarning sog`lig`ini tiklab, harbiy xizmatga qaytarish borasida amaliy ishlar olib borilgan. Bu yerda yuzlab turli-tuman tibbiy muassasalar: ko`chirib keltirilgan shifoxonalar (evakogospitallar –ko`chirib keltirilgan, harbiy vaqtida tashkil etilgan shifoxonalar bo`lib, u yerda bemor va jarohatlangan askarlarga tibbiy yordam ko`rsatilgan. Ko`chirib keltirilgan shifoxonalar o`z hududlari (Rossiya, Belorussiya, Ukraina)da asosan, aholiga tibbiy xizmat ko`rsatishni amalga oshirgan, ya`ni o`z xususiyatiga ko`ra, oddiy davolash muassasasi hisoblangan. Ammo, front ortiga ko`chirilgandan so`ng ularning xususiyati va vazifalari tubdan o`zgartirilib, harbiylashtirilgan rejimga o`tkazilgan. Ushbu tibbiyot muassasalarini endilikda oddiy aholini emas, balki yarador jangchilarni tez fursatda davolab, frontga qaytarish vazifasini bajargan va harbiylarga xizmat ko`rsatuvchi shifoxonaga aylangan. Shu bilan birga, asli harbiylarga xizmat ko`rsatuvchi harbiy shifoxonalar ham ko`chirib keltirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021-йил Хотира ва қадрлаш кунига бағишлиланган тантанали маросимда сўзланган нутқи. 2021 йил 9 май - <https://president.uz/uzlists/view/4335>. [Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the Day of Remembrance and Appreciation 2021. May 9, 2021 - <https://president.uz/uzlists/view/4335>.]
2. Ходжаков А. Здравоохранение Андижанской области в годы Великой Отечественной войны// Медицинский журнал Узбекистана. -1985. -N -5. -C-9. [Khodzhakov A. Health care of the Andijan region during the Great Patriotic War // Medical Journal of Uzbekistan. -1985. -N -5. -Sh-9.]
3. O`zMA.R-837 fond, 32-ro`yxat, 3347-yig`ma jild, 150-varaq [Fund UzMA.R-837, list 32, volume 3347, page 150.]
4. O`zMA.R-2096 fond, 1-ro`yxat, 40-yig`ma jild, 80-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 40, page 80, 81, 84]
5. O`zMA.R-2096 fond, 1-ro`yxat, 109-yig`ma jild, 1-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 109, page 1.]
6. O`zMA.R-2096 fond, 1-ro`yxat, 109-yig`ma jild, 1a-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 32, volume 109, page 1a.]
7. O`zMA.R-2096 fond, 1-ro`yxat, 40-yig`ma jild, 3-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 40, page 3.]
8. O`zMA.R-2096 fond, 1-ro`yxat, 26-yig`ma jild, 2-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 26, page 2.]
9. O`zMA.R-2096 fond, 1-ro`yxat, 109-yig`ma jild, 2-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 109, page 2, 18]
10. O`zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxiv. 1-fond, 1-ro`yxat, 9463-yig`ma jild, 21-varaq [National archive of scientific, technical and medical documents of Uzbekistan. Fund 1, list 1, collective volume 9463, sheet 21.]